NAVOIY HAYOTI VA IJODIDA KITOBXONLIK MASALASI

Farg‘ona davlat universiteti Filologiya fakulteti
o‘zbek tili yo‘nalishi 2-bosqich talabasi
Jamiyatxon Abdullayeva

Annotatsiya: *Mazkur maqolada Alisher Navoiy asarlarida kitobxonlik madaniyati va ilm-ma’rifatga munosabat masalalari tahlil qilinadi. Mutafakkir ijodida kitobning inson kamolotidagi o‘rni, ilm olishning fazilati, mutolaaning ma’naviy tarbiyadagi ahamiyati hamda komil insonni shakllantirishdagi roli yoritiladi. Shuningdek, Navoiyning badiiy va didaktik asarlarida kitobxonlikka da’vat etuvchi g‘oyalar, ilm ahliga bo‘lgan hurmat va ma’rifatparvarlik qarashlari ilmiy asosda tahlil etiladi. Maqolada Navoiy merosining bugungi yoshlar ma’naviyati va kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi ahamiyati ham ochib beriladi.*

Kalit so‘zlar: *Navoiy, kitobxonlik, mutolaa, ilm-ma’rifat, komil inson, ma’naviyat, mumtoz adabiyot, tarbiya, ma’rifatparvarlik.*

Xalqimiz qadimdan kitobxonlikka jiddiy e’tibor berib kelgan. Aslida kitobxon bo‘lgan xalqimiz firdavsiyxonlik, rumiyxonlik, jomiyxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik, fuzuliyxonlik kabi so‘zlar bilan mashhur bo‘lgan. Ayniqsa, bu masala Navoiy ijodida o‘zining cho‘qqisiga chiqqan.

Alisher Navoiy o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandasi, buyuk mutafakkir va ma’rifatparvar siymo sifatida xalqimiz ma’naviy hayotida beqiyos o‘rin egallaydi. Uning boy adabiy merosi nafaqat badiiy jihatdan yuksak ahamiyatga ega, balki inson tarbiyasi, ilm-ma’rifat, odob-axloq va komil inson g‘oyalarini targ‘ib etishi bilan ham qimmatlidir. Navoiy asarlarida ilm olish, kitob mutolaasi va ma’rifatga intilish inson kamolotining eng muhim mezonlaridan biri sifatida talqin etiladi.

Sharq mumtoz adabiyotida kitob va ilmga bo‘lgan hurmat azaldan yuksak qadrlangan. Ayniqsa, Navoiy ijodida ilm-ma’rifat insonni jaholatdan qutqaruvchi, uni ruhiy va ma’naviy yuksalishga eltuvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Shoir o‘zining ko‘plab asarlarida kitobxonlikni inson tafakkurini boyituvchi, dunyoqarashini kengaytiruvchi muhim vosita sifatida ko‘rsatadi. Uning fikricha, mutolaa inson qalbini poklaydi, aql-zakovatini charxlaydi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Alisher Navoiy ijodida o‘qishga muhabbat, kitobxonlikka da’vat va o‘qishning zaruriyati amda ahamiyati keng badiiy talqin qilinganini ko‘rish mumkin. Navoniy talqinicha, bilmaganini so‘rab, to‘xtovsiz bilimini oshirib borgan kishi olim bo‘ladi. Boshkalardan so‘rashga orlanib, bilim olishni istamagan odam esa o‘ziga zolimlik qilib, zarar ko‘radi. Navoiy «Mahbub ul-qulub” (“Ko‘ngillarning sevgilisi”) pandnomasida shundaylar haqida to‘xtalib o‘tadi: “O‘rganurdan qochgan lavand (dangasa) va yuziga qiyal (xiyla) va bahona eshigin ochg‘on tanand (ishyoqmas)”

Bundan tashqari, Alisher Navoiy “Xamsa” tarkibidagi dostonlarida kitobxonlik, o‘qish va o‘rganish masalalariga alohida diqqat qaratgan. Chunonchi, “Layli va Majnun” dostoni bosh qahramoni Qays (Majnun) maktabga borganda shu qadar berilib o‘qiydiki, hamsaboq bolalar unga yeta olmay, xijolat bo‘lar edilar. Navoiy Qaysning o‘qishga qattik berilganini ta’riflab yozadi:

Bir kun edi ham sabaqqa hamtak
Ikinchi kun o‘tmish erdi beshak.
Kun bor edikim besh-o‘n sabaqni
Anglab, evurur edi varaqni.
Oz vaqtda ayladi zamona,
Oni bori ilm aro yagona.

Ya’niki, Qays bir kun sheriklari bilan saboqdosh bo‘lsa, ikkinchi kuni, albatta, (ulardan) o‘zib ketardi. Shunday kunlar ham bo‘lardiki, besh-o‘n

saboqni o‘qib, anglab, yangi varaqlar ochardi. Shu yo‘sinda zamona uni tez vaqtda hamma ilmlar bo‘yicha yagona (tengsiz) qilib qo‘ydi.

Qays Laylini sevishdan oldin maktabda o‘qib, chuqur bilim oladi. Tinmay o‘qib-o‘rganib, yoshligidanoq zamonasining eng bilimli kishisiga aylanadi. Navoiy o‘qish, o‘rganish va ilm egallashni ham ishq bilan bog‘laydi. Ulug‘ shoir talqinicha, ilm ham ishqdir. Shu sababli o‘qish va bilim olishga mehr-muhabbat bilan yondashish lozim. Shundagina inson orzu-maqsadiga erishadi.

Navoiy tasviricha, “Farhod va Shirin” dostonidagi Farhod ham yoshligidan o‘qishga, ilm va hunar egallashga qattiq berilgan edi. U Chin mamlakati podshosining yagona o‘g‘li, shahzoda bo‘lishiga qaramay, o‘qish, bilim va hunar egallashdan nomus qilmaydi. Aksincha, tinmay o‘qiydi. Navoiy uning o‘qishga mehrini quyidagicha tasvirlaydi:

Ne so‘znikim o‘qub, ko‘ngliga yozib,
Dema ko‘ngliki, jon lavhiga qozib,
O‘qub o‘tmak, uqub o‘tmak shiori,
Qolib yodida safha, safha bori...
Jahonda qolmadi ul yetmagan ilm,
Bilib tahqiqini kasb etmagan ilm.

Farhod qanday so‘zni o‘qisa, ko‘ngliga, faqat ko‘ngliga emas, hatto jon lavhasiga naqshlanib qolar edi. U o‘ziga o‘qib o‘tish bilan birga, uqib o‘tishni ham shior qilib olgan, o‘qiganlari hammasi sahifama-sahifa yodiga o‘rnashib borar edi... Natijada dunyoda egallamagan, o‘rganib tagiga yeta olmagan biron ilm qolmadi. Kitobga, o‘qishga bo‘lgan muhabbat va tinmay o‘qish Qaysni ham, Farhodni ham zamonasining eng donishmand kishisiga, komil insonlik darajasiga yetkazadi. Voqean, Navoiyning o‘zi ham juda yoshliklaridan kitobni sevganligi hamda uzluksiz o‘qishi tufayli buyuk shoir va olim darajasiga yetgan edi. Navoiy Hirotda boshlang‘ich ma’lumot olganidan so‘ng, sakkiz yil (1456-1464) Mashhadda, uch yil (1466-1469) Samarqandda o‘qidi. Navoiy o‘qish

davrida ona tilisi o‘zbek tilini chukur o‘rganishdan tashqari, fors-tojik va arab tillarini ham mukammal egallagan edi. Chunki u yoshlikdan boshqa tillarni bilish muhim ahamiyat kasb etishini tushunganlar.

Navoiy besh-olti yoshida Qur’oni Karimni yodlagan bo‘lsa, yetti-sakkiz yoshida buyuk shoir Farididdin Attorning 9600 misradan noorat “Mantiq ut-tayr” («Qush nutqi”) dostonini yod olgan edi. «Muhokamat ul-lug‘atayn” («Ikki til muhokamasi”) da esa yoshlikda yodlagan she’rlari haqida to‘xtalib, shunday deydi: «Yigitligim zamoni va shabob ayyomi avonida ko‘prak she’rda sehrsoz va nazmda fusunpardoz shuaroning shirin ash’ori va rangin abotidin ellik mingdin ortuq yod tutupmen”. Navoiy yigitlik paytida o‘zbek, tojik va arab she’riyatidan 100 ming misra she’rni yoddan bilgan bo‘lsa, o‘rta yoshlik vaqtida 200 ming misra she’rni yoddan bilardi.

Navoiy talqinicha, doimiy tarzda kitobxonlik bilan shug‘ullanish, kerakli bilimlarni chuqur egallash insonni donishmand qilibgina qolmay, baxtli ham qiladi. Navoiy yaratgan «Saddi Iskandariy” («Iskandar devori”) dostonidagi Iskandar ham yoshligidan kitob o‘qishni odat qilgan, o‘qish, o‘rganishni kanda qilmay intilgan, bilmaganlarini Naqumoxis, Arastu kabi donishmandlardan so‘rashdan uyalmagan, tirishqoq shahzoda edi. Zamonasining barcha ilmlarini egallagan Iskandar shoh bo‘lishdan ko‘ra, ilm bilan shug‘ullanish afzalligini anglab yetadi. Shu sababli otasi vafotidan keyin xalqqa murojaat qilib, o‘zlaringga munosib podshoh saylab olinglar, deydi va shohlikni istamasligini ma’lum qiladi. Navoiy bu borada Jomiydan ilhomlangan va ustozi an’analarini davom ettirib, inson nasabi bilan emas, balki kitobxonligi, o‘qishga muhabbati va o‘qiganligi, ilm-ma’rifatni qadrlashi va bilimdonligiga ko‘ra davlat hamda xalqqa rahbarlik qilishga haqlidir, degan ilgor fikrni olg‘a suradiki, bu g‘oya hamma davrlar uchun ahamiyatli edi. Darvoqe, dostondagi tasvirga binoan, xalq Iskandarning ko‘p o‘qiganligini, o‘qish tufayli u komillik kasb etganligini bilganliklari tufayli uning o‘zini shohlikka saylaydilar.

Iskandar podshoh bo‘lgandan so‘ng ham o‘qish va o‘rganishni kanda qilmaydi. Barcha safarlarida ustozi Arastuni birga olib yurib, bilmaganlarini undan so‘rab ish tutadi. Turli mamlakatlarda ham o‘sha yerning donishmand olimlari bilan suhbatda bo‘ladi. Noyob kitoblarni to‘plab, ularni o‘qib, ulardagi ilmlarni o‘rganib boradi. Tinmay o‘qish va o‘rganish tufayli u butun dunyoni egallab, jahongirga aylanadi. Hamma joyda xalqning dodiga yetib, adolat o‘rnatadi. Shaharlar qurib, obodonchilik bilan shug‘ullanadi. Navoiy bularning hammasini Iskandarning o‘qimishli va ma’rifatli bo‘lganligiga bog‘lab tasvirlaydi.

Ma’lum bo‘ladiki, ulug‘ shoir va mutafakkirlar Alisher Navoiy ijodida kitobxonlikka da’vat va o‘qishning ahamiyati keng badiiy talqin qilingan. Kitobga muhabbat, kitobxonlik, o‘qish va o‘rganishga namunali da’vat Navoiyning o‘z faoliyati va asarlari misolida yorqin ifodasini topgani hozirgi davr yoshlari uchun g‘oyat namunali bo‘lib, ulardan o‘rganish yuksak amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alisher Navoiy. "Mahbub ul-qulub" Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 14-jild. Toshkent: Fan, 1998.

2. Alisher Navoiy. "Layli va Majnun". Mukammal asarlar to‘plami, 9-jild. - Toshkent: Fan, 1992-yil.

3. Alisher Navoiy. "Farxod va Shirin". Mukammal asarlar to‘plami, 8-jild. - Toshkent: Fan, 1991-yil.

4. Alisher Navoiy. "Muhokamat ul-lug‘atayn". Mukammal asarlar to‘plami. Yigirma jildlik. 14-jild. Toshkent: Fan, 1998.

5. Alisher Navoiy. "Saddi Iskandariy". Mukammal asarlar to‘plami, 11-jild. Toshkent: Fan, 1993-yil.